XALQ DEPUTATLARI QUVASOY SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 10-dekabr VII-2-08-11-167-K/24 Quvasoy shahar

Quvasoy shahrining ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni “Yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer hisobini yuritish hamda kadastr xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-son bayoni hamda mazkur bayonning 20-bandi ijrosini ta’minlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son “Yo‘l xaritasi” tasdiqlangan.

“Yo‘l xaritasi”sining 10- va 11-bandlarida hududiy komissiyalar tomonidan muammoli hududlarda chegara chizig‘ini belgilash bo‘yicha tayyorlangan takliflarni ko‘rib chiqish va qo‘shni hududlar bilan kelishish hamda kelishilgan chegara chizig‘ini tasdiqlash bo‘yicha tegishli Xalq deputatlari Kengashining qarorlarini qabul qilish choralarini ko‘rish topshirig‘i berilgan.

Ma’lumki, Quvasoy shahar ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtiruvchi shahar Komissiyasining 2024-yil 31-iyuldagi 01-35/40-sonli bayonnomasi bilan Quvasoy shaharining Farg‘ona shahri, Toshloq, Farg‘ona va Quva shaharlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasining kartorafik chizmalari va chegaraning tavsiflari tegishlicha ilovalarga muvofiq tasdiqlangan.

“Yo‘l xaritasi”ning 5-bandi ijrosini bo‘yicha, Kadastr agentligi tomonidan Quvasoy shahrining chegara chizig‘i chizmasi va tavsiflari tayyorlanib, Agentlikning 2024-yil 28-martdagi 03/08-2963-son xati bilan Kadastr agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasiga ko‘rib chiqish va kelishish uchun taqdim etilgan.

Respublika aerogodeziya markazi Farg‘ona hududlararo bo‘linmasining 2024-yil 20-iyun kungi 112-son xat bilan xalq deputatlari shahar Kengashiga murojaat qilib, shahar Kengashining sessiyasida Quvasoy shahrining chegara chizig‘i chizmasi va tavsiflarini ko‘rib chiqilishida amaliy yordam berilishi so‘ralgan.

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasiga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari shahar Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I :

1. Quyidagilar:

- O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastragentligining 2024-yil 28-martdagi 03/08-2963-sonli xati;

- Respublika aerogodeziya markazi Farg‘ona hududlararo bo‘linmasining 2024-yil 20-iyun kungi 112-son xati;

- shahar ishchi komissiyasining 2024-yil 31-iyuldagi 01-35/40-sonli bayonnomasi inobatga olinsin.

2. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat xokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasida “Xalq deputatlari Kengashi, hokim O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq yer munosabatlariga doir boshqa masalalarni hal qilishi”;

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasida xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, shaharlar va shaharlar (Qoraqalpog‘iston Respublikasi shaharlari va shaharlari) Kengashlari o‘z vakolatlari doirasida ma’muriy-hududiy tuzilish masalalariga doir qarorlar qabul qilishi belgilanganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

3. Quvasoy shahar ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtiruvchi komissiyasining (keyingi o‘rinlarda-Komissiya deb yuritiladi) Quvasoy shaharining Farg‘ona shahri, Toshloq, Farg‘ona va Quva shaharlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash to‘g‘risida”gi yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

4. Quvasoy shahar ma’muriy-hududiy chegara uzunligi va umumiy yer maydoni 1-ilovaga, Quvasoy shahar ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ining sxemasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Xalq deputatlari shahar Kengashining tegishli qarori qabul qilinganda hamda ma’muriy-hududiy chegara davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandagina (Ma’muriy hududiy birliklar davlat reyestriga kiritilganda) ***Quvasoy shaharining Farg‘ona shahri, Toshloq, Farg‘ona va Quva tumanlari*** bilan ma’muriy-hududiy chegarasi belgilangan deb hisoblansin.

6. Respublika aerogodeziya markazi Farg‘ona hududlararo bo‘linmasi (D.Temirov) hamda Davlat kadastrlar palatasi Quvasoy shahar filiali (A.Sultonov)ga:

Quvasoy shahar Kokilon MFY O‘rikzor mahallasidagi qabriston Farg‘ona tumani hududiga o‘tib qolganligi sababli, mazkur ma’muriy hududiy chegarani Quvasoy shahar hududiga o‘tkazib, tegishli o‘zgartirishlar kiritilsin.

Shunga ko‘ra, mazkur ma’muriy hududiy chegarani Quvasoy shahar hududiga o‘tkazish uchun Davlat kadastrlar palatasi Quvasoy shahar filiali (A.Sultonov) hamda Davlat kadastrlar palatasi Farg‘ona tumani filiali hamkorlikda zaruriy chora-tadbirlar ishlab chiqib, ijrosini ta’minlasin.

Mazkur qaror bandi ijrosi bajarilishi yuzasidan tayyorlangan hujjatlar Xalq deputatlari Quvasoy shahar Kengashiga taqdim etilsin.

7. Qaror bajarilishini nazorat qilish vazifasi xalq deputatlari shahar Kengashiga hamda Davlat kadastrlar palatasi Quvasoy shahar filiali (A.Sultonov) zimmasiga yuklansin.

8. Ushbu Kengash qarori rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi, Kengash raisining o‘rinbosari

MEXMONOV MO‘YSINJON DADAJONOVICH

Xalq deputatlari Quvasoy shahar
Kengashining
2024-yil 10-dekabrdagi
VII-2-08-11-167-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Quvasoy shaharining ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish haqida

M A ’ L U M O T

№	Shahar nomi	Chegara uzunligi (metr)	Yer maydoni (gektar)
1.	Quvasoy shahri	122423,28	26389,14

Xalq deputatlari Quvasoy shahar
Kengashining
2024-yil 10-dekabrdagi
VII-2-08-11-167-K/24 -son qaroriga
2-ilova

